

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA DIREKTOR O'RINBOSARI TOMONIDAN OILA VA MAHALLA BIRLIKDA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

*Toshkent Shahar Mirobod tumani
326-son DMTT direktor o'rinbosari
Xusainova Nazokat Satimboyeva*

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida mahalla, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi, maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktabning o'zaro hamkorligini tashkil etish quyidagi asosiy prinsiplarga haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: в данной статье обозначены следующие основные принципы сотрудничества микрорайона, семьи и дошкольной образовательной организации, организация взаимного сотрудничества дошкольной образовательной организации и школы в воспитании детей дошкольного возраста.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, hamkorlik, oila, o'quvchi, bolalar, ta'lim-tarbiya, pedagoglar, prinsplar.

Ключевые слова: дошкольные образовательные организации, сотрудничество, семья, ученик, дети, образование, педагоги, директора.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) faoliyatida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish faqat tarbiyachi va pedagoglar mehnati bilangina emas, balki oila hamda mahalla bilan uzviy hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Chunki bola tarbiyasida eng asosiy muhit — bu oila, uni qo'llab-quvvatlovchi, ijtimoiy tarbiya maydoni esa mahalladir. MTT esa ushbu ikki muhim institut bilan hamkorlikda ishlagan taqdirdagina bolada ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy ko'nikmalar va sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga erishiladi. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur"* ekanligi ota-onalarning qonuniy vazifasi etib belgilangan. Mazkur modda ham ota-onalarning farzand ta'lim-tarbiyasi uchun javobgarligini asoslaydi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilalar o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlari ustuvor vazifa sanaladi.

Shu jihatdan qaralganda, MTT direktor o'rinbosarining oila va mahalla bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, uni rejalashtirish, muvofiqlashtirish hamda takomillashtirishdagi roli alohida ahamiyatga ega. Direktor o'rinbosari mazkur

hamkorlikni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish orqali bolalarning tarbiyaviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko‘nikmasini shakllantirish ham muhimdir.



Maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik — bola tarbiyasining eng muhim omillaridan biridir. Ularning uzviy hamkorlikda ishlashi bolaning har tomonlama rivojlanishi, ma’naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanishi hamda kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishning kafolatidir. Demak, tarbiya jarayonida barcha sub’yektlarning mas’uliyat va birligi ta’lim sifatini oshirishning muhim shartidir.

Hamkorlikning asosiy vazifalari:

Pedagogik jamoalar oldida turgan birinchi va asosiy vazifa bolani bolalar bog‘chasidan maktab o‘quv yurtiga o‘tkazish jarayoni uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. So‘nggi paytlarda bolaning intellektual tayyorgarligining tarkibiy qismlari to‘g‘risida ko‘plab kelishmovchiliklar mavjud, shuning uchun olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarligini yaxshilash bo‘yicha birgalikda ish olib borish juda dolzarb vazifadir. Shu bilan birga, bolalarda maktab hayotiga qiziqishni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bir muassasadan ikkinchisiga o‘tish davrida ota-onalarga bolani kuzatishda ularning rolini tushunishga yordam berish maktab xodimlari va bolalar bog‘chalari o‘qituvchilari uchun etakchi vazifadir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktab bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Olib borilgan izlanish va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachilar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta’lim olishiga ijobiy hissa qo‘shadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ushbu hamkorlikni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida berilayotgan ta’limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo‘layotgan qiziqish va ta’limni rivojlantirish uchun zarur degan ishonchga asoslanadi. Hamkorlik deganda, ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlari mavjud bo‘lib, bir-birlarini layoqatli deb bilishlari va bir-birlarini sherik sifa-tida qadrlashlari nazarda tutiladi. Hamkorlik tarbiyachi bilan ishlaydigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o‘qishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ko‘plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tarbiyachilar MTTda nimalarni o‘rgatayotganiga tayanib, ta’lim brrish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Shuni aytish joizki, har bir davlatning o'ziga xos tarixi, ta'lim-tarbiya masalalarida o'z qarashlari mavjud. Albatta rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, ularda berilgan ta'limtarbiya metodikalarni taxlil qilish juda muhim. Ularni amaliyotda qo'llashda albatta o'zimizni mentalitetimizga, milliy qadriyatlarimizga mos tomonlarini olgan holda amaliyotga joriy qilish ahamiyatlidir.

Oila–MTT–mahalla hamkorligining mazmuni va ahamiyati

Oila, mahalla va MTTning hamkorligi bolani har tomonlama tarbiyalashda yagona tizim sifatida ishlashi zarur. Ushbu hamkorlik quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- bolalarning tarbiyasida yagona yondashuvni shakllantirish;
- ijtimoiy muhitning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish;
- ota-onalarning pedagogik bilimni oshirish;
- bolalarni milliy qadriyatlar, urf-odatlar ruhida tarbiyalash;
- tarbiyada uzluksizlik va izchillikni ta'minlash.

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa maktabgacha ta'lim sohasidagi yangilanishlar bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ularning intellektual, jismoniy, ruhiy hamda ma'naviy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) faoliyatining samaradorligi nafaqat ta'lim jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, balki tarbiya jarayonining uzluksizligi, izchilligi hamda jamiyatning barcha tarbiyaviy institutlari bilan hamkorlikda olib borilishiga ham bevosita bog'liqdir. Chunki bolani tarbiyalash mas'uliyati faqat MTT zimmasiga yuklatilmaydi, aksincha bu jarayon oila, mahalla va ta'lim muassasasi o'rtasidagi uzviy hamkorlik orqali yanada mukammal shakllanadi.

Ma'lumki, bolaning ilk tarbiyasi avvalo oilada boshlanadi. Oila — bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning dunyoqarashi, fe'l-atvori, odob-axloqi, nutqi va ijtimoiy xulqini belgilab beradigan birlamchi tarbiya maskanidir. Shuningdek, mahalla ham ijtimoiy tarbiya tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, unda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, mehr-oqibat, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari, jamoaviylik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi fazilatlar bolalarga amaliy hayot orqali singdiriladi. Shu jihatdan qaralganda, MTT faoliyatida oila va mahalla bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish nafaqat tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshiradi, balki bolalarning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy faolligi hamda ma'naviy immunitetini shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda globallashuv, axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, turli ommaviy axborot vositalari hamda internet tarmog'i orqali bolalar ongiga turli qarash va axborotlarning kirib kelishi tarbiya masalasiga yanada jiddiy yondashishni talab etmoqda. Chunki bolalar ongida ijobiy fazilatlar bilan birga ayrim hollarda salbiy ta'sirlar ham shakllanishi mumkin. Shuning uchun MTTda tarbiyaviy

jarayonni mustahkamlash, oiladagi tarbiya bilan uyg'unlashtirish, mahalla muhitida sog'lom tarbiyaviy makonni yaratish orqali bolalarda to'g'ri dunyoqarash va ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish zarur hisoblanadi.



Ushbu jarayonda MTT direktor o'rinbosarining roli alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki direktor o'rinbosari oila va mahalla bilan hamkorlikni tashkil etuvchi, uni rejalashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi hamda nazorat qiluvchi boshqaruv subyekti sifatida faoliyat yuritadi. U pedagogik jamoani hamkorlikka yo'naltiradi, ota-onalar bilan ishlash tizimini shakllantiradi, mahalla faollari bilan birgalikda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etadi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan manzilli ishlash mexanizmlarini yo'lga qo'yadi. Natijada MTT, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlik izchil, tizimli va samarali yo'lga qo'yilib, bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotida direktor o'rinbosari tomonidan oila va mahalla birgalikdagi faoliyatini takomillashtirish masalasi bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib, u ta'lim sifatini oshirish, tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish va bolalarning barkamol shaxs bo'lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida direktor o'rinbosari tomonidan oila va mahalla hamkorligini takomillashtirish bolalar tarbiyasida uzluksizlik, izchillik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Direktor o'rinbosari hamkorlikni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, innovatsion shakl va metodlarni joriy etish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Oila va mahalla bilan birgalikda olib borilgan tarbiyaviy ishlar natijasida bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy faollik, muloqot madaniyati va sog'lom hayot tarzi ko'nikmalari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020
2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/". Toshkent, 2020 y.
3. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova
4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va va oila hamkorligi. 3-modul. - Toshkent. 2008 y.